1997- yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun	ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat
2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmon	Ushbu qonun o'z vaqtida muhim bo'lgan bo'lsa-da, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta'lim tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqislarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi.

Izoh: Talabalar "Mostlikni toping" metodini qo'llagan holda chap tomondagi tushunchalarga o'ng tomonda yozilganlar orasidan mostlarini aniqlab yozadilar.

4-topshiriq.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonunning belgilab berilgan vazifalarni "Klaster" grafik organayzeri yordamida yoritib bering.



Izoh: Talabalar "Klaster" grafik organayzeri yordamida javoblarni aniqlab yozadilar va yoritib beradila.

5- topshiriq.

T-sxema jadvali

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonunning afzalligi nimada?	Aksincha-chi?
---	---------------

--	--

Izoh: Talabalar g'oyalari yozma ravishda o'ng va chap taraflarida ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari yozib chiqadilar.

6-topshiriq.

“BBB” usulidan foydalangan holda mavzu yuzasidan olgan bilimingizni aniqlang.

№	Savollar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	Mustaqillik yillarida Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni bilasizmi?			
2.	Mustaqillik ostonasida O'zbekiston SSRda ta'lim tizimining holati haqida nimalar bilasiz?			
3.	O'zbekistonda ta'lim sohasining sifat o'zgarishlar haqida nimalar bilasiz?			

Izoh: Talabalar savollarga javoblarni yozadilar va yoritib beradilar

7-topshiriq.

O'zbekiston mustaqillik e'lon qilgan davrdagi ta'lim tizimidagi muammolarni assisment usulida aniqlang.

Kuchli tomoni	Kuchsiz tomoni

Izoh: Talabalar muammoni assisment usulidadan foydalanib kuchli va kuchsiz tomonlarini yozadilar va uni og'zaki asoslab beradilar.

8-topshiriq.

Test tuzish.

1. Mustaqillik yillarida Ta'lim to'g'risida qonun necha marta qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyevning “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni qachon imzolandi? 2019-yil 8-oktyabrdagi

3. Prezidentimiz «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni qachon qabul qildi.

4. Yurtimizda qaysi fondlar tomonidan ilm fan, ta'lim namoyondalarini xorijiy tajribaga o'rganish muhim vazifa qilib qo'yildi?

5. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga muvofiq, o'quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklini yaratish 20 foizdan necha ... foizga oshiriladi.

Izoh: Talabalar savollarga testlar tuzib chiqadilar va aniq javobni ko'rsatadilar.

9-topshiriq.

Muammoli ta'lim metodiga SWOT – tahlil. O'zbekistonda ta'lim tizimi. (1991-2000-yillar)

S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

Izoh: Talabalar SWOT – tahlil yordamida mavzuni yoritib beradilar.

10-topshiriq.

Mustaqil ish mavzulari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Shakli
1	Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi ustuvor halqaro reytinglar va ularga O'zbekistonning integratsiyalashuvi.	Multimediali taqdimotlar yaratish
2	O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari	Referat (glossariy tuzish, test)
3	O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni.	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
4	Yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosining o'rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida).	Test (glossariy tuzish)
5	O'zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari	Multimediali taqdimotlar yaratish
6	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
7	O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li	Multimediali taqdimotlar yaratish

Izoh: Talabalar mustaqil ta'lim mavzularini tayyorlash shakli bo'yicha tayyorlaydilar.

Adabiyotlar

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Yu.A.Ergasheva umumiy tahriri ostida. Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2021.– 443 b.

2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari uchun) Darslik. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov va b. 2022. – 347 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son qonuni.

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi

Reja

1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish.
2. O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora–tadbirlar.
3. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha vazifalar

Nazorat savollari

1. Xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha ishlarni hukumatning maxsus komissiyasi muvofiqlashtirib kelishining sababi nimada?

2. Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash mamlakatimiz uchun butkul yangi yo‘nalish hisoblanadi. Shu ma’noda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor?

3. Bugungi kunda qaysi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston hali e’tirof etilmagan? Buning sababi nimada?

4. Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyidagi pog‘onalarda qolmoqda va buning asosiy sabablari nimalardan iborat?

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar

1-topshiriq.

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi.

Reja

1. Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati
2. O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini
3. Mamlakatimizda xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha vazifalar

Izoh: Talabalar muammoni, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini va yechimlarini yozadilar va uni og‘zaki asoslab beradilar.

2- topshiriq.
T-sxema jadvali.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda yuqori pogʻonalarda bormoqda	Aksincha-chi?

Izoh: Talabalar gʻoyalarini yozma ravishda oʻng va chap taraflarida ijobiy va salbiy tomonlarini yozib chiqadilar.

3-topshiriq. Mostlikni toping.


61 oʻrinda	Oʻzbekiston 2021-yil xalqaro internet tezligi reytingida
114 oʻrinda	Oʻzbekiston 2020-yil xalqaro statistik salohiyat indeksi reytingida
93 oʻrinda	Oʻzbekiston 2020-yil xalqaro iqtisodiy erkinlik indeksi reytingida
93 oʻrinda	Oʻzbekiston 2020-yil xalqaro ekologiya samaradorligi indeksi reytingida

Izoh: Talabalar “Mostlikni toping” metodini qoʻllagan holda chap tomondagi tushunchalarga oʻng tomonda yozilganlar orasidan mostlarini aniqlab yozadilar

4-topshiriq.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyi pogʻonalarda qolmoqda “Baliq skeleti” sxemasi yordamida yoritib bering.

Kichik muammolar



Muammolar mavrjudligini tasdiqlovchi dalillar

Izoh: Talabalar muammolarni yozadilar va uni ogʻzaki asoslab beradilar.

5-topshiriq.

“BBB” usulidan foydalangan holda mavzu yuzasidan olgan bilimingizni aniqlang.

No	Savollar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	Xalqaro reyting va indeks nima?			
2.	O‘zbekiston hali e’tirof etilmagan Xalqaro reyting va indeksni bilasizmi?			
3.	O‘zbekiston qaysi reyting va indekslarda yuqori pog‘onalarda?			

Izoh: Talabalar savollarga javoblarni yozadilar va yoritib beradilar.

6-topshiriq.

“Klaster” grafik organayzeri yordamida yoritib bering.



Izoh: Talabalar “Klaster” grafik organayzeri yordamida javoblarni aniqlab yozadilar va yoritib beradila.

7-topshiriq.

O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha muammolarni assisment usulida aniqlang.

Kuchli tomoni	Kuchsiz tomoni
----------------------	-----------------------

--	--

Izoh: Talabalar muammoni assisment usulidadan foydalanib kuchli va kuchsiz tomonlarini yozadilar va uni og‘zaki asoslab beradilar.

8-topshiriq.

Test tezish.

1. O‘zbekiston 2021-yil xalqaro global tinchlik indeksi reytingida nechanchi o‘rinda?
2. O‘zbekiston 2021-yil xalqaro ayollar reytingida nechanchi o‘rinda?
3. O‘zbekiston 2020-yil xalqaro ochiq ma'lumotlar reytingida nechanchi o‘rinda?
4. O‘zbekiston 2020-yil xalqaro farovonlik indeksi reytingida nechanchi o‘rinda?
5. O‘zbekiston 2020-yil xalqaro ekologiya samaradorligi indeksi reytingida nechanchi o‘rinda?

Izoh: Talabalar savollarga testlar tuzib chiqadilar va aniq javobni ko‘rsatadilar.

9-topshiriq.

Muammoli ta’lim metodiga SWOT – tahlil.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda.

S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

Izoh: Talabalar SWOT – tahlil yordamida mavzuni yoritib beradilar.

10-topshiriq.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Tayyorlash shakli
1	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.	Referat (glossariy tuzish, test)
2	O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar	Multimediali taqdimotlar yaratish
3	O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot	Referat (glossariy tuzish, test)
4	Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Taqdimot (glossariy tuzish, test)
5	O‘zbekiston va jahon hamjamiyati	Test (glossariy tuzish)

6	Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar	Referat (glossariy tuzish, test)
7	Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari.	Multimediali taqdimotlar yaratish

Izoh: Talabalar mustaqil ta’lim mavzularini tayyorlash shakli bo‘yicha tayyorlaydilar.

Adabiyotlar

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Yu.A.Ergasheva umumiy tahriri ostida. Qarshi. «Intellect» nashriyoti, 2021.– 443 b.
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. (Oliy o‘quv yurtlarining nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari uchun) Darslik. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov va b. 2022. – 347 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4210-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 maydagi “Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini taminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-246-son qarori.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023, - 78 b.
2. O‘zbekiston tarixi: o‘quv qo‘llanma. qayta ishlangan va to‘ldirilgan beshinchi nashri. Hamidov X.H, Ernazarov Sh.E., Raxmonov B.M.-T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. - 428 bet.
3. O‘zbekiston tarixi. Darslik (Nomutaxassislik oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar hamda talabalari uchun) Oblomurodov N., Tolipov F. Toshkent, 2019. - 400 b.

Axborot manbaalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

GLOSSARIY

Agrosanoat	Yerni sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash.
Adolat	(arabcha –odillik, to'g'rilik) – 1) axloq va huquqning asosiy kategoriyalaridan biri; 2) qonun oldida barchaning tengligi va qonunning barchaga barobarligi.
Anarxizm	(yunoncha-hokimiyatsizlik, beboshlik)-rahbar sifatida faqat alohida shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi ta'limot
An'ana	jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi
Aristokratik	sinfy jamiyatda: xukmron sinfning imtiyozli yuqori tabaqasi, oqsuyaklar, aslzodalar, zodagonlar. Aristokratiyaning aksi - oligarxiya.
Astronomiya	Falakkiyot ilmi
Baynalminal	Millatlararo jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi hamjihatligi nazariyasi va amaliyoti
Barqarorlik	tinchlik, osoyishtalik. Tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy uzul-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muhim sharoit
BMT	Birlashgan Millatlar tashkiloti. 1945 yilda tuzilgan. Dunyodagi 200 dan ortiq davlatlar BMT a'zosi. 1992 yil 2 martda O'zbekiston ham unga a'zo bo'lib kirdi.
Bozor iqtisodiyoti	iqtisodiy aloqalarning yig'indisi bo'lib o'z qonunlariga ega, ya'ni: erkin raqobat, ehtiyoj va ishlab chiqarish, talab va takliflarning miqdori va tarkibini bir-biriga muvofiqlashtirish, xususiy mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, mulkka egalik, xo'jalik yuritish ishlariga faqat iqtisodiy usullar bilan ta'sir ko'rsatish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish kabi iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Bozor iqtisodi xalqning ijodi va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlik uchun keng yo'l ochadi
Vatan	(arabcha) – ona yurt, kishilarning yashab turgan, ularning avlod ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati.
Geosiyosat	- ustuvor darajada tashqi siyosat tushunchasi bo'lib, uning asosini har bir davlat tashqi siyosiy manfaatlarini ta'minlash uchun qulay makoniy shart-sharoitga erishishga intilishni tashkil qiladi.
Davlat	butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan siyosiy tashkiloti. Davlatjamiyatni qonun kuchi bilan boshqaradi.
Davlat madhiyasi	davlatning kuy jo'rligida qo'shiq qilib aytiladigan rasmiy ramzi, mamlakat yakdilligining timsollaridan biri (Yunoncha gimn – madhiya, maqtov).
Davlat gerbi	Davlatning rasmiy emblemasi.
Dekret	Qaror, sovet hukumatlarining birinchi qarorlari
Demokratik tamoyillar	inson huquqini hurmat qilish asosiga qurilgan. g'oyaviy – ma'naviy, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tamoyillar. g'arbiy Yevropa, so'ngra boshqa mamlakatlarda XVI asrdan boshlab qaror topa boshlagan. XVII-XIX asrlarda ro'y bergan islohotchilik harakatlari demokratiya tamoyillarini qaror toptirish yo'lida amalga oshirilgan.
Demokratik institutlar	Jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo'lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy

	harakatlar. 2) Yuridik maqomga ega bo'lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.
Demokratiya	(grekcha demokratiya – xalq hokimiyati) – xalq hokimiyatchiligi, siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlari singari konstitutsiyaviy prinsiplarini e'tirof etishga asoslangan davlat tuzilishi shakli. Hokimiyat xalq tomonidan bevosita yoki vakillik tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan.
Din	(arabcha-e'tiqod, ishonch) – Xudoga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, farishtalarga ishonish. Ijtimoiy hayotni voqelikni uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri.
Diniy bag'rikenglik	xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi
Diniy mutaassiblik	Dinga ko'r-ko'rona amal qilish
Diniy tashkilot	dindorlar va diniy jamoalarning uyushmalari (diniy jamiyatlar, o'quv yurtlari, masjid, cherkov, sinagog, monastir)
YXHT	Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. O'zbekiston 1992 yil fevral oyida bu tashkilotga a'zo bo'ldi.
Zarafshon-Nyumont	Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida tuzilgan Navoiy viloyatida tog' jinslaridan oltin va kumush oluvchi qo'shma korxonalar.
Zo'raki jamiyat	Bolsheviklar doholari orzu qilgan va sovet davrida unga zo'rlab erishishga harakat qilingan "sotsialistik tuzum".
Ijtimoiy demokratiya	bugungidavrdemokratiyani islohotlar jarayoniga aylantirish
Ijtimoiy xamkorlik	turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi
Iqtisodiyot	Kishilar hayotini ta'minlaydigan modniy ne'matlar ishlab chiqarish va uning iste'moli bilan bog'liq barcha sohalarning yig'indisi va ayni jarayonda shtirok etayotgan odamlarning faoliyati, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar, munosabatlarning yaxlit birligi
Iqtisodiy integratsiya	xo'jalik hayotini internatsiona-lizatsiyalashning oliy formasi bo'lib, milliy xo'jaliklar mujassamlanishi jarayoni va davlatlar aro o'zaro kelishilgan holda iqtisodiy siyosat yurgizish
Integratsiya	milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va, mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o'zaro ta'sir etishi jarayoni
Intellektual mulk (aqliymulk)	ijodiy aqliy mehnat mahsuloti. Fan, adabiyot, sa'nat va ishlab chiqarish sohasidagi ijodiy faoliyatning boshqaturlari asarlari, asarlari jumladan kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatsiya-torliktakliflari, sanoat namunalari, EHM uchun programmlar, berilmalar bazasi, nou-xouning ekspert tizimlari, savdosirlari, tovar belgilari, firma atamalarini boshqalari aqliy mulk ob'ektlariga kiradi
Intelligen siya	ilm-fan, adabiyot va sa'nat bilan maxsus shug'ullanuvchi tabaqa, aqliy mehnat vakillari (ziyolilar)
Islohot	biror sohani tubdan qayta tashkil yetish, tubdan o'zgartirish, qayta tuzish, yaxshilash. Jamiyatda hukm surgan tartiblarni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar. Islohot biron sohadagi mavjud tartiblarni tubdan o'zgartirish hisoblanadi.
Kompleks	Birlashtirilgan, umumlashgan, yig'ilgan.
Konstitutsiya	Davlatning bosh qomusi.

Korrupsiya	(lotincha –poraga sotilish, aynish, tanazzul)– mansabdor shaxsning boyish maqsadida o‘z mansabi bilan bog‘liq huquqlarini suiste‘mol qilishidan iborat jinoyati. Qonunsiz harakat qiluvchi, amaldorlar ittifoqi.Korrupsiyamansabdor shaxslarning shaxsiy boyish maqsadi-da sotilishi sifatida nomayon bo‘ladi
Quloq	Asli “kulak” (musht) so‘zini anglatib, sovet hukumatining jamoalashtirish siyosatiga qarshi bo‘lganlarga nisbatan berilgan nom. Bu nom “mushtimzo‘rlar” ma‘nosida ishlatilgan.
Manfaat	individ yoki ijtimoiy guruh faoliyatini, xulqini belgilaydigan asosiy omil
Mafkura	davlat, jamiyat, millat, sinf yoxud ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalovchi, himoya qiluvchi siyosiy, xuquqiy, falsafiy, diniy g‘oya, nazariya va qarashlar tizimi.
Ma‘naviy meros	ma‘naviyat rivojlanishining uzoq davrlar mobaynida tarkib topgan, avloddan-avlodga boyluk sifatida o‘tib boruvchi, inson aql-zakovatining mevasi sifatida keyingi avlodlarga xizmat qiluvchi ma‘naviy boyluklar
Ma‘naviyat	(arab. – ma‘nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui
Ma‘rifat	Ma‘rifat - bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma‘rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonidir.
MDH	1991 yil 8 dekabrda Minskda Rossiya, Ukraina, Belorus rahbarlari uchrashuvida tashkil topgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi. 1991 yil 21 dekabrda bu hamdo‘stlik yana 8 ta sobiq ittifoq Respublikalari (o‘u jumladan O‘zbekiston) hisobiga kengaydi.
Mentalitet	– (lotincha «mens» - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati
Metodologiya	Uslublari
Millatlararo totuvlik	muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi
Millatchilik	o‘z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo‘yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim
Milliy g‘oya	millatning o‘tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g‘oya
Milliy qadriyat	millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakli
Milliy taraqqiyot	evalyusion xarakterga ega, u quyidan yuqoriga tomon ko‘tarilishidan iborat bo‘lgan jarayondir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi
Milliy tiklanish	millat taraqqiyoti tarixining ma‘lum bir bosqichida ma‘lum ob‘ektiv va su‘bektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir
Mineral	Ma‘dan
Movarounnahr	Daryo ortidagi yerlar.
Mustaqillik	1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy tobe bo‘lmaslik. O‘zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqlol so‘zi bilan yaqin ma‘noda qo‘llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.
Muholifat	(arabcha «muholafat» - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo‘lmagan nuqtai

	nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo'lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida
Nodavlat tashkilotlar	davlatlararo bitimlar asosida tuzilmaydigan va unga kiruvchi hukumatlardan iborat bo'lmagan tashkilot.
Ombudcman	Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning Vakolatli instituti.
Ommaviy axborot vositalari	Jurnal, gazeta, axborot agentliklari, teleradio-kompaniyalar.
Parlament	Qonun chiqaruvchi organ. O'zbekiston parlamenti ikki palata: Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat.
Paxta ishi	Sobiq ittifoqning o'zini saqlab qolish maqsadida O'zbekiston va o'zbek xalqi nomini badnom qilish uchun to'qib chiqargan siyosati. Bir xalqning nomini badnom qilish orqali boshqa xalqlar va respublikalarni qo'rqitish usuli.
Renessans	Uyg'onish
Repressiya	Qatliom, qatag'on qilish. Sovet davrida yangi tuzumga, davlat rahbariga qarshi bo'lganlardan o'ch olish siyosati. O'zboshimchalik va g'ayriqonuniylik.
Reformator	Islohotchi,
Referendum	Umumxalq ovozi berish,
Sanoatlashtirish	Sanoatni rivojlantirish, sobiq ittifoqda bu siyosat og'ir industriyani rivojlantirishdan boshlangan.
Suveren davlat	Siyosiy mutelik va asoratdan qutilgan, mustaqil ozod davlat.
Tajan-Saraxs – Mashhad-Transosiyo temir yo'li	1992-1996 yillarda qurilgan 295 km. Lik temir yo'l. 1992 yil mayida imzolangan bitimga ko'ra O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlatlari qurgan temir yo'l.
Ta'lim	biror ma'lumotni kishilarga ma'lum bir tartibda berish va uni o'zlashtirish, qabul qilish jarayoni. Ta'lim – axloqli, odobli shaxsga hunar o'rgatish, bilim berishdir
Territoriya	Hudud, chegara,
Texnologiya	Yangicha, maxoratli, yangi uslub,
Totalitar	Zo'ravon, nima hohlansa shuni qilishi mumkin.
O'zbek modeli	Mamlakatimizni har jihatdan taraqqiy ettirishni ko'zlab, yashab turgan fuqarolarning taqdirinigina emas, balki kelajak avlodlarining taqdirini ham uylab, madaniyatli davlatlar darajasiga chiqib olishni ta'minlashni ko'zda tutib birinchi Prezident I.Karimov tomonidan nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan taraqqiyot yo'li.
Umumba shariy	butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi
Urf-odat	kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar
“Fikh”	Musulmon qonunshunosligi.
Fuqarolik jamiyati	iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilot-lar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat OAV ham mansubdir
Fundamental	Asosli, mustahkam,
Xalq farovonligi	har bir shaxs va oila farovonligi insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat

	manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi
Xalqaro konsorsium	Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, birgalikdagi tadbirlar orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, moddiy-tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida tuzilgan xalqaro birlashma.
Xalqaro munosabatlar	davlatlar, davlatlar tizimlari, xalqaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar.
Xalqaro xamkorlik	davlatning xalqaro maydondagi faoliyati asosiy yo'nalishlaridan biri.
Xokimiyat	kishilar, ijtimoiy guruhlar, sinflar faoliyatiga, xulq-atvoriga, harakatlariga iqtisodiy, g'oyaviy, ijtimoiy mexanizmlar, kuch ishlatish, zo'rlik qilish, ishontirish qobiliyatlari bilan ta'sir etuvchi faoliyat shaklidir.
Xuquqiy davlat	davlat tuzilishi va faoliyatining xuquqqa asoslanganligi
Hadis	Yo'l-yo'riq, to'g'ri yo'l, rivoyat.
Sivilizatsiya	Taraqqiyot,
Sharqona demokratiya	urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o'ziga xos demokratiya

